



TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2022 - yil 1 - iyul holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	116 201 107,1 %
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	111 683 107,5 %
Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022 - yilda)	8 108 85,8 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni


(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2022 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022 - yil yanvar - iyun oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 yil yanvar - iyun oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,9** foizga kamaydi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 – yil 1 – iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,2** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




13,4 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




9,6 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




5,9 foizga kamaydi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **7,2** foizga oshdi



Xususiy korxonalar







9,4 foizga kamaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(2022 – yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022 - yilning 1 - iyul holatiga ko'ra 3,8 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 mingtaga yoki 4,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,6 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 mingtaga yoki 4,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 - yilning yanvar - iyun oyilarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 271 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga yoki 2,6 % ga ksmayganini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2022 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022 yil 1 - iyul holatiga ko'ra 8,8 mingtani tashkil etib, ulardan 8,6 mingtasi yoki 97,3 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1,0 mingtaga yoki 12,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 - yilning yanvar - iyun oylarida 836 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar - iyun oylarida, birlikda)



Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)


12

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Rossiya Federatsiyasi	1 673	765	908
Qozog'iston Respublikasi	854	312	542
Ozarbajon Respublikasi	186	55	131
Ukraina Respublikasi	148	70	78
Qirg'iz Respublikasi	152	49	103
Tojikiston Respublikasi	112	45	67
Turkmaniston Respublikasi	63	20	43
Belarus Respublikasi	106	36	70
Armaniston Respublikasi	29	15	14
Moldova Respublikasi	18	6	12

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 19,3 %, Qozog'iston Respublikasi 9,8 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,2 %, Qirg'iz Respublikasi 1,7 % va Tojikiston Respublikalari 1,3 % ga to'g'ri kelmoqda.

Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2022 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Toshkent shahri	8 648	3 156	5 492
tumanlar:			
Uchtepa	300	91	209
Bektemir	191	96	95
Yunusobod	1027	393	634
Mirzo Ulug'bek	1146	416	730
Mirobod	1474	437	1037
Shayxontohur	599	261	338
Olmazor	443	216	227
Sirg'ali	311	128	183
Yakkasaroy	1397	445	952
Yashnobod	721	298	423
Yangihayot	116	52	64
Chilonzor	923	323	600

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 474 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,0 %), Yakkasaroy – 1 397 ta (16,2 %), Mirzo Ulug'bek – 1 146 ta (13,3 % hamda Yunusobod tumanlarida 1 027 tani (11,9 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Yangihayot 116 tani (1,3 %), Bektemir 191 ta (2,2 %), hamda Uchtepa – 300 ta (3,5 %) tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra, birlikda)





2022 - yil 1 - iyul holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (12,7 %), Yunusobod – (12,5 %), Mirzo Ulug'bek – (11,4 %), Olmazor – (10,1 %), Shayxontohur – (9,8 %), Uchtepa – (8,8 %), Yakkasaroy – (8,6 %), Mirobod – (8,3 %), Yashnobod – (8,2 %), Sirg'ali – (5,1 %), Bektemir – (2,4 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,2 %) tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)

2022-yil yanvar-may oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (12,4 %), Yunusobod – (12,2 %), Mirzo Ulug'bek – (11,4 %), Olmazor – (9,4 %), Shayxontohur – (9,3 %), Yashnobod – (9,2 %), Mirobod – (8,1 %), Yakkasaroy – (8,4 %), Uchtepa – (8,0 %), Sirg'ali – (5,8 %), Yangihayot (3,2 %) hamda Bektemir – (2,5 %) tumanlarida tashkil etgan.







2022 - yilning yanvar - iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Yunusobod – (13,7 %), Shayxontohur – (13,3 %), Olmazor – (12,2 %), Uchtepa – (11,4 %), Yashnobod – (10,0 %), Chilonzor – (8,5 %), Sirg'ali – (7,7 %), Yangihayot – (6,3 %), Mirobod – (4,8 %) Bektemir (4,8 %) Yakkasaroy – (4,1 %), hamda Mirzo Ulug'bek tumanlarida (3,3 %) ni tashkil etgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022 – yilning yanvar-iyul oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi
tel.: 71 203-88-31